

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TUPROQSHUNOSLIK FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Tuproqshunoslik talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Tuproqshunoslik

1. Tuproq morfologiyasi;
2. Tuproq fizikasi;
3. Tuproq kimyosi.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Tuproq morfologiyasi	Tuproqshunoslik fani, tarixi, tuproq namunalari tuproq kesmalari, tuproq tiplari, tuproq paydo bo'lishida moddalarning katta geologik va kichik biologik aylanishini, tuproq profilining tuzilishi va morfologik belgilarini, tuproq va tuproq paydo qiluvchi jinslarning granulometrik tarkibini, tuproq paydo qiluvchi jins va yotqiziqlarning asosiy turlarini talqini haqida tushunchalarni bilishi	40 %	16 ta
2	Tuproq kimyosi	Tuproq kimyosining nazariy asoslari, tuproq chirindisi haqida, tuproqlarning kimyoviy ifloslanishi va ularning yechimini hal etish, organomineral birikmalarning hosil bo'lishini hamda tuproqdagi kimyoviy, biokimyoviy jarayonlar ahamiyatini va ular orasidagi muvozanatini har tomonlama va chuqur o'rgatish yo'llari haqida bilishi.	15 %	6 ta
3	Tuproq fizikasi	Tuproqning mexanik tarkibi, fizik-mexanik xossalari, tuproq strukturasini yaxshilash, tuproqlarning suv va issiqlik rejimini mo'tadillashtirish usullari bilan tuproq unumdorligini saqlash, tiklash va oshirish bo'yicha agrotexnik chora-tadbirlarni ishlab chiqish, tuproq va havo iqlimlarning o'zaro bog'liqligining ilmiy asoslari, inson faoliyati havoning pastki va tuproqning ustki qatlami iqlimiga o'zaro bog'liqliliginingoid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	45 %	18 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	40 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	32,5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	27,5 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt me'yori

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. P. Uzoqov, Sh. Holiqulov, I. Boboxo‘jayev TUPROQSHUNOSLIK darslik Toshkent – 2010
2. Boboxo‘jayev I., Uzoqov P.- «Tuproqshunoslik», Mehnat, T.1995
3. Xoliqulov SH., Uzaqov P., Boboxo‘jayev I - «Tuproqshunoslik», Mehnat, T. 2013 y.
4. Sodiqova G.S. Tuproqshunoslik. “NIF MSH”, Toshkent 2024 y.